

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

TA'LIM XIZMATLARI MARKETINGINI ISHLAB CHIQISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR

Мухаммадов Акбар-Осиё Халқаро Университети магистрант

Annotatsiya. Maqolada ta'lism xizmatlari marketingini ishlab chiqishning nazariy yondashuvlari keltirilgan. Bunda iqtisodchi olimlarning fikr va sharhlari o'r ganilgan. Ta'lism xizmatlari marketingini shakllantirish va rivojlan Tirish sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: marketing, bozor, ta'lism xizmatlari, tijorat marketingi, notijorat marketingi.

Kirish. Ta'lism xizmatlari deganda inson faoliyatining muayyan bilimlar yig'indisini olish natijasida qo'lga kiritilgan foydali samarani, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi, bozor va nobozor munosabatlarni mujassamlovchi aralash ne'matni tasavvur etamiz.

Ta'lism xizmatlarini tadqiq qilishda klassik yondashuvni qo'llash uning quyidagi xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi:

- his etmaslik;
- manbadan ajralmaslik;
- nomuntazamlik (geterogenlik);
- saqlanib qolmaslik;
- mult huquqini yo'qligi.

Asosiy qism. Dunyo miqyosida ta'lism xizmatlariga nisbatan o'ziga hos qarashlar va ta'riflar mavjud.

Misol ta'riqasida YUNESKO tashkil etilganining 75 yilligiga bagishlangan ko'rgazmada aynan ta'lism sohasiga alohida to'xtalgan, ta'limga oid quyidagi ta'riflar keltirib o'tilgan. Ta'lism olish bu shaxsning qobiliyati xulq-atvorining takomillashishi jarayoni va natijasidir, ta'lism olish orqali u individual o'sadi va ijtimoiy yetuklikka erishadi¹.

Eslatib o'tishimiz joizki YUNESKO har bitta konferensiyalarda ta'limga ayniqsa rivojlanish darasi ancha orqada bo'lgan mamlakatlar aholisi ta'limga va ayniqsa ayollar ta'limga alohida to'xtalib o'tadi.

¹ Выставка «ЮНЕСКО: образование для всех». (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://www.rsl.ru/ru/events/afisha/vistavki/yunesko-obrazovanie-dlya-vsekh>

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yer yuzida marketingning 1000 dan ortiq ta'rifi mavjud. Mazkur ta'riflarning quyidagi tahriridan foydalanish maqbul: «Ta'lim xizmatlari marketingi boshqaruv jarayoni bo'lib, u iste'molchilarining ehtiyojlarini bashorat qilish va qanoatlantirishni o'z ichiga oladi hamda ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan darajada foyda olinishiga erishiladigan tarzda rivojlanirishni ko'zda tutadi». Ushbu ta'rif marketing o'z ichiga qanday jarayonlarni olishini va qanday maqsadlarga intilishini tushunib olish imkonini beradi.

Ta'lim sohasida marketing muammolari, ta'lim xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari, uning raqobatbardoshligini aniqlash, baholash bilan bog'liq masalalar A.P. Pankruxin, I.V. Zaxarova², S.A. Mamontov, V.N. Nujdin, A.I. Subetgo, O.V. Saginova³, A.A. Chensov⁴ kabi xorijlik olimlar tomonidan keng o'r ganilgan.

Bundan tashqari T.I. Avdeeva, A.D. Kuliklar zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim o'rniga o'ziga hos qarashni keltirib o'tgan unga ko'ra ta'lim xizmati davlatning ajralmas iqtisoiy bo'lagidir, shu sababli davlat har bir yoshda yoki ish jarayonida shaxslardan ma'lum bir ilmiy darajani talab qiladi. Bu ham iqtisodchilar qarashlaridan bir lavha, bu o'z navbatida shuni anglatadiki, aholi bolaligidan jamiyatda o'z o'rnini topish uchun ham ta'limga muhtojdir. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ta'lim davlat tovari bo'lib, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash bilan bir qatorda xalq xo'jaligining aralash sektoriga kiradi.

Bundan tashqari ta'lim va ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda marketingni o'rniga asoslangan ilmiy izlanishlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin, Natalya Kallenskaya, Ilshad Gafurov va Aida Novenkovalar birgalikda "Marketing of Educational Services: Research on Service Providers Satisfaction" nomli ilmiy ish qilishgan. Magdalena Platis va Eleonora Gabriella Baban. Steven P. Schnaars. Ken Franzen 2018 yilda "Ta'lim sektorlari uchun muvaffaqiyatli marketingning beshta kaliti" nomli maqola nashr etgan. Pankruxin. A.P "Marketing obrazovatelnix uslug v vysshem i dopolnitelnom obrazovanii". Porter M.E "Competitive strategy" nomli kitobi

² Захарова И.В. Маркетинг образовательных услуг. / И.В. Захарова. – Ульяновск: УлГТУ, 2008.

³ Сагинова О.В. Управление процессами глобализации образования в высшей школе России (теория, методология, практика). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук.

– М., 2006.

⁴ Ченцов А.А. Инновационные стратегии на рынке образовательных услуг. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон., наук. – М., 1998.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

rqali raqobat muhiti, raqobatchilar va raqobatlashish haqida chuqur va sinalgan ma'lumotlar olish mumkin.

Ta'lism xizmati jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: mamlakat mehnat resurslaridan foydalanishning umumiyl samaradorligini oshirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtida ta'lism xizmatlarining mohiyatini muhokama qilish to'xtamaydi.

BMTning YuNESKO tashkiloti "ta'lism" atamasiga o'zida ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadlarida amalga oshiriladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va muntazam faoliyatning barcha turlari ma'nosini ifoda etadi degan ta'rif beradi.

Raqobat va raqobatbardoshlik muammolari xorij va MDH mamlakatlari olimlaridan P. Druker, F. Kotler, J.J. Lamben, M. Meskon, M. Porter, M. Tresi, E. Chemberlen, Y. Shumpeter, Li Yakokko, G.L. Azoev, G.L. Bagiev, Ye.P. Golubkov, R.A. Fatxutdinov, A.Yu. Yudanovlar tomonidan chuqur o'rganilgan va ularning ilmiy asarlarida batafsil yoritib berilgan.

Bu mualliflar raqobatning mazmun-mohiyati va turli bozorlarda amal qilish mexanizmi, korxonalar raqobatbardoshligining shakllanishi va uni baholash kabi masalalarga katta e'tibor qaratishgan.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini, jumladan, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi muammolari, oliy ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, unga marketing tizimini joriy etish masalalari S.S. Gulomov, B.Yu. Xodiev, N.X. Jumaev, A.Sh. Bekmurodov, M.R. Boltaboev, A.A. Djumanov, G.N. Axunova, D.X. Nabiev, Z. Adilova va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

G.N. Axunova tomonidan ta'lism xizmatlari samaradorligini oshirish, ta'lism tizimi qonuniyatlarini tadqiq etish, barkamol avlodni tarbiyalash hamda ta'lism xizmatlari bozori marketingi muammolari o'rganilgan.

D.X. Nabiev tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishida globallashuv va modernizatsiyalash sharoitida ta'lism tizimida marketingni boshqarish xususiyatlari va qonuniyatlar, marketing strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy asoslari taklif etilgan, ta'lism muassasalarida marketing tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Z. Adilovaning ilmiy ishida esa mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida iqtisodiyot yo'nalishidagi kadrlarni tayyorlashni boshqarish, A.Ochilovning ilmiy tadqiqot ishida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

boshqarish samaradorligini oshirish, T.Teshaboevning oliv ta'lism tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish, G.Sagdullaevanig ilmiy ishida oliv ta'lism xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi masalalari o'rganilgan.

Mazkur muammoga bag'ishlangan tadqiqotlar sonining ko'pligi va yetaricha tajriba to'planganligiga qaramasdan ta'lism sohasida, xususan, oliv ta'lism raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish kabi masalalar ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Aynan shu jihatlar ushbu mavzuning tanlanishiga asos bo'ldi va bugungi kunda mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

F.Kotler va K.F.A.Foks bergan ta'rifga ko'ra, ta'lism xizmatlari marketingi deyilganda "oliv o'quv yurtlari (OO'Yu)ning intilishlarini ruyobga chiqarish maqsadida maqsadli bozorlarda qadriyatlarni ixtiyoriy ravishda ayrboshlashni yuzaga chiqarishni puxta o'ylab ishlab chiqilgan dasturlarni o'rganish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish"⁵tushuniladi. OO'Yu uchun bu - o'zaro manfaatli aloqalarni uyg'unlashtirish maqsadida ta'lism muassasalari bilan iste'molchilar o'rtasida ayrboshlash munosabatlarini urnatish yuli bilan ta'lism dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashdir.

Bunday juda ham keng ta'rifni biroz oydinlashtirishga to'g'ri keladi.

Birinchidan, marketing - bu tadqiqot, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni qamrab olgan boshqaruv jarayonidir.

Ikkinchidan, marketing - bu tasodifiy amallar emas, balki sinchkovlik bilan bajarilgan tadqiqotlarga asoslanib, puxta ishlab chiqilgan dasturlardir.

Uchinchidan, qadriyatlarni ixtiyoriy ravishda ayrboshlash nazarda tutiladi, ya'ni ta'lism muassasalari aholini yetarli darajada o'ziga tortadigan dasturlar bilan chiqishi kerak.

To'rtinchidan, iste'molchilar talablarining tabaqlanishi hisobga olinadi, shuning uchun ham dasturlar barcha iste'molchilarga bir xil emas, balki muayyan mijozlarga mo'ljallab bir nechta turda ishlab chiqiladi.

Iste'molchilar talablariga mos kelmaydigan dasturlarni zo'rma-zo'raki taklif qilish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi muqarrar.

Beshinchidan, marketing maktablar va oliv o'quv yurtlariga ta'lism xizmatlari bozorida o'z o'rinlarini topishga, har bir ta'lism muassasasining o'z missiyasini to'laqonli ado etishiga ko'maklashadi.

⁵ Kotler Philipp, Fox. Karen F.A. Strategic Marketing for Educational Institutions. - New Jersey. 1985. P.7.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Va nihoyat, marketing loyiha dasturi, narx shakllanishi, tarqatish usullari va siljitish tizimiga asoslangan marketing majmuasida amalga oshiriladi. Bu majmuuning har bir elementi ta'lif xizmatlari iste'molchilarining xatti-xarakatiga o'z ta'sirini ko'rsatishini anglatadi.

Masalan, nufuzli OO'Yu ta'lif xizmatlari narxlari baland bo'lishiga qaramay talabasiz qolmaydi, dasturlarning sifati va ta'lif muassasasining bozordagi barkdror mavqeい xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dj.Evans va B.Berman marketingning umumiyligini konseptual asoslariga tayanib, tijorat va notijorat marketing o'rtaisdagi asosiy farqlarni aniqlab berishgan.

Tijorat marketingi asosan tovar va xizmatlar bilan bog'liq, pul tovar va xizmatlarga ayriboshlanadi, maqsad odatda sotish, foyda va nakd pul olishga qaratiladi, ustunligi iste'molchilarning to'lovlariga bog'liq, bozorning daromadli segmentlariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, faqat bir toifadagi mijozlar - iste'molchilarga ega.

Notijorat tashkilotlar uch turda bo'lib, birinchi turga mulk egasi tomonidan ijtimoiy-madaniy va borpcha notijorat xarakteridagi faoliyatni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasalar kiradi. Asosan budget mablag'larini hisobiga moliyalashtiriladigan davlat tashkilotlari shular jumlasidan hisoblanadi. Nodavlat ta'lif muassasalari ham shu guruhga kiradi.

Xulosa. Ta'lif muassasalarining samarali faoliyat yuritishi va sifatli ta'lif xizmatlari ko'rsatishini ta'minlashda ta'lif tizimida marketing tadqiqotlarini olib borishning o'rni beqiyos. Biroq, respublikamiz ta'lif sohasida marketingdan foydalanishning ilmiy asoslari hali to'liq yaratilmagan. Shu bois, bugungi kunda mehnat bozori ehtiyoji asosida kichik mutaxassislar tayyorlash va ularning bandligini ta'minlashda bir qator muammolar mavjud.

Adabiyotlar

1. Жумаев Н.Х., Бекмурадов А.Ш. Модернизация системы и содержания высшего экономического образования в контексте инновационного развития экономики Узбекистана. с. 88-90.
2. Бекмурадов А.Ш. Университетская автономия. // Экономическое обозрение, 2007, № 1, с. 17-18.
3. Джуманов А.А. Повышение научно-инновационного потенциала высших учебных заведений: опыт международного Вестминстерского университета в Ташкенте. В сб. статей Международная конференции.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

4. Ахунова Г.Н. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари (монография). – Т.: Иқтисод-мolia, 2005. – 244 б.
5. Набиев Д.Х. Маркетинг в сфере образования (монография). – Т.: Fan va texnologiya, 2008. – 208 б.
6. Адилова З. Управление подготовкой экономических кадров в условиях либерализации экономики Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. эк. наук. – Т.: ТГЭУ, 2010.
7. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1), 557-562.
8. Qayumovna, J. Z., Ne'matovna, R. N., & Azizovna, P. A. FAVORABLE INVESTMENT CLIMATE FORMATION ISSUES FOR ATTRACTING ACTIVE INVESTMENTS. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 29.
9. Жумаева, З. К. (2023). Потенциал инвестиционной стратегии развития региона. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 333-337.
10. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.
11. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.
12. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности* (pp. 358-361).
13. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(1), 61-64.
14. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International experience in attracting foreign direct investment. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(4), 38-43.
15. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, 4, 455-458.